ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Surmaxon Ismoilova,

“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY” NOTM

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti

YOSHLARDA MILLIY QADRIYATLARNI TARKIB TOPTIRISHDA HADISLARDAN FOYDALANISH

Kalit so‘z: yoshlarda milliy qadriyatlar, hadislar, axloqiy tarbiya, milliy madaniyat, odob-axloq, hadislarning ahamiyati, jamiyatni rivojlantirish, qadriyatlar, yoshlarni tarbiyalash, mehnatsevarlik, hurmat va ehtirom, shaxsiyatni shakllantirish, hadislar va milliy qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik.

Ключевые слова: национальные ценности среди молодежи, терпение, справедливость, трудолюбие, воспитание молодежи, развитие общества, значение хадисов, нравственность, национальная культура, моральное воспитание, хадисы национальная культура, моральное воспитание, хадисымежду хадисами и национальными ценностями.

Keywords: hadiths, national values among the youth moral education, national culture morality, the significance of hadiths, societal development islamic values youth education, diligence, justice, patience, the connection between hadiths and national values.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada yoshlarda milliy qadriyatlarni shakllantirishda hadislarning ahamiyati o‘rganiladi. Hadislar, Islom dinining asosiy manbalaridan biri bo‘lib, odob-axloq, mehnatsevarlik, adolat va boshqa ijtimoiy qadriyatlarni targ‘ib qiladi. Maqolada hadislar orqali yoshlarni tarbiyalashning ahamiyati, ularning milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashishi va jamiyatni rivojlantirishdagi roli muhokama qilinadi. Yoshlar tarbiyasida hadislarning o‘rni, ularning axloqiy va ma'naviy shakllanishiga ta'siri haqida fikrlar keltiriladi. Shuningdek, hadislarni zamonaviy ta’lim tizimida qanday integratsiya qilish mumkinligi ham ko‘rib chiqiladi.

Аннотация: В данной научной статье рассматривается важность использования хадисов в формировании национальных ценностей у молодежи. Хадисы, являющиеся одним из основных источников ислама, пропагандируют такие социальные ценности, как мораль, трудолюбие, справедливость и другие. В статье обсуждаются важность воспитания молодежи через хадисы, их гармонизация с национальными ценностями и роль в развитии общества. Приводится анализ влияния хадисов на моральное и духовное становление молодежи. Также рассматриваются возможности интеграции хадисов в систему современного образования.

Abstract: This scientific article explores the significance of utilizing hadiths in shaping national values among the youth. Hadiths, one of the primary sources of Islam, promote social values such as ethics, hard work, justice, and other cultural principles. The article discusses the importance of educating the youth through hadiths, their alignment with national values, and their role in societal development. It highlights the impact of hadiths on the moral and spiritual development of youth. Additionally, it examines how hadiths can be integrated into the modern educational system.

KIRISH

Yoshlarda milliy qadriyatlarni shakllantirish bugungi kunda jamiyatni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekistonda milliy qadriyatlar va an'analar nafaqat ijtimoiy hayotda, balki ma'naviy-ma'rifiy sohalarda ham muhim ahamiyatga ega.

Maqolada hadislarning ijtimoiy-g‘oyaviy mazmuni, tarbiyaviy ta’siri, hadis so‘zining etimologik ma’nosi va tarixiy shakllanishini pedagogik nuqtai nazardan talqin etish hamda bolalarni hadislar orqali ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning falsafiy, pedagogik va psixologik holatini yoritib berish, hadislardan foydalanishda bolalarning yoshi, psixologik-ma’naviy rivojlanishi bo‘yicha xususiyatlarini hasobga olish, ta’lim muassasalarida hadislarni o‘qitish asosida bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash samaradorligini oshirish nazarda tutilgan.

ADABOYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Qur’oni Karim, Hadislar va shariat ko‘rsatmalari inson ma’naviy-ma’rifiy kamolotining asosi bo‘lgan axloq-odob tarbiyasining barcha qirralarini o‘z ichiga olishi, ularda axloqiy kamolot, xalollik va poklik, imon va vijdon bilan bog‘lik fazilatlar mujassamlashganligi shaxs ma’naviy shakllanishida katta ahamiyat kasb etishi haqida boshlang‘ich sinfdanoq tushuntirish lozim. Chunki, inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar asosida tarbiyalanadi va kamol topadi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan ulug‘ allomalarimiz – Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari, xususiy maktablar singari yangi va zamonaviy namunadagi ta’lim dargohlari tashkil etildi. Bularning barchasi Vatanimizning baxtiyor farzandlari uchun ta’lim-tarbiya olish borasida yangi imkoniyatlar ochib bermoqda.

Bugungi kunda Namanganda – Is’hoqxon Ibrat, Jizzaxda – Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim, Qarshida –Abdulla Oripov, Marg‘ilonda – Erkin Vohidov, Nukusda – Ibroyim Yusupov, Andijonda – Muhammad Yusuf, Gulistonda – Halima Xudoyberdiyevaning ijod maktablariga asos solindi. O‘z navbatida, iqtidorli bolalar har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Bizga ma’lumki, har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki, ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki ma’naviy-axloqiy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Ana shu sababdan ham ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilmu ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari diniy ulamolarimiz ham maktablarda ma’rifat, bag‘rikenglik, odob va axloq ilmlarini, Imom Buxoriy, Termiziy, Motrudiy, Naqshband kabi ulug‘ ajdodlarimiz ma’naviy merosini o‘rgatishi maqsadga muvofiq, deb ta’kidlamoqdalar.

Zero, ulug‘ alloma ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning: “Odamlar bilmagan narsalariga dushmanlik ko‘zi bilan qaraydilar”, degan so‘zlari bejiz emas. Mashhur nemis shoiri va mutafakkiri Gyotening “Qonunlarni qancha ko‘p va yaxshilab o‘qisak, ularni buzishga vaqtimiz qolmaydi”, degan fikri zamirida ham katta ma’no yashirin. Chunki bilimli, o‘qimishli odam madaniyatli bo‘ladi. Madaniyatli odam qonunlarni buzmaydi, demak, jamiyatda o‘z-o‘zidan jinoyatchilik kamayadi. Bilimsiz kishilarning ko‘ngli xurofotga moyil bo‘lishi ham hayotda ko‘p bora o‘z isbotini topgan. Shu bois maktabning, ta’lim va tarbiyaning ahamiyati beqiyos.

Bolalarimizga chuqur va sifatli bilim berish bilan bir qatorda qonunlar va odob-axloqni, dinu diyonat va ma'naviyatni maktablardan boshlab puxta o'rgatish juda muhim deyilgan. [5]

Komil insonni tarbiyalash masalasi har doim har qanday jamiyatning birinchi galda hal qilinishi zarur bo'lgan masalalaridan bo'lib kelgan. Yurtimizning istiqlolga erishishi tufayli yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Asrlar davomida e'zozlab kelingan umuminsoniy va milliy qadriyatlarni yoshlar ma'naviyatiga singdirishga katta ahamiyat berilmoqda. Chunki taraqqiy qilgan jamiyatni har qanday insonlar emas, balki ma'naviy dunyosi boy o'zida halollikni, adolatni, insof, iymon, diyonat kabi tushunchalarni mujassam qilgan komil insonlargina qura oladi. Zero, kalom falsafasi ham jamiyatni o'zgartirish uchun, eng avvalo, insonni o'zgartirish kerak, deb hisoblaydi. Insonni o'zgartirish uchun esa ta'lim-tarbiya jarayoniga milliy ma'naviyatimiz asosi bo'lmish hadislarni faol kiritish zarur deb ta'kidlangan. [6]

Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisning Senati va Qonunchilik palatasiga navbatdagi Murojaatnomasida ilm-ma'rifat va texnologiyalar rivojiga alohida ahamiyat qaratdi:

"Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!"

Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish, uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Imom Buxoriy bobomiz o'z kitoblarida keltirgan muborak hadisda aytilganidek, **"Barcha amallar niyatga qarab bo'ladi".**

Darhaqiqat, pok niyatlar bilan boshlangan xayrli ishlar, albatta ijobat bo'ladi.

Bugun biz ham tanti, sabr-qanoatli va mehnatkash xalqimiz bilan birga ulug' maqsadlarni belgilab, marrani baland olmoqdamiz.

Oldinda bizni ulkan vazifalar, katta imkoniyatlar kutmoqda.

Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqmiz. [1]

MUHOKAMA

Yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning yo'llari va usullari xilma-xil bo'lib, ulardan bolalarning milliy qadriyat, an'analar ruhida tarbiyalash alohida o'rin turadi.

Ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya masalalari muhim o'rin egallaydi. Ular juda qadimdan oilada farzand tarbiyasiga katta e'tibor bilan qaraganlar. Sharq mutafakkirlarining pandnoma, hikmatnoma tarzida yozilgan minglab asarlari yoshlarda milliy qadriyatlarni, ma'naviy madaniyatni yuksaltirishda muhim o'rin tutadi. Shu sababli o'quvchilarda ezgu ma'naviy sifatlarni bolalikda singdirish lozim bo'ladi.

Milliy ma'naviyatimizning asosiy manbalaridan bo'lmish hadislarni ham o'quvchilarga boshlang'ich sinf davridanoq o'rgatish yaxshi natija beradi. O'quvchilarning axloqiy sifatlarini

shakllantirishda hadis ilmini o‘qitishning ahamiyati beqiyosdir. Chunki o‘zbek xalqining ma’naviyatini tarkib topdirishda payg‘ambarimizning so‘zlari, amallari, qarashlari hadislar ko‘p asrlardan beri asosiy manba bo‘lib kelmoqda. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, hadislar o‘quvchilarni inson sifatidagi ma'naviy dunyosi yuksak bo‘lishini ta'minlashning ishonchli vositasi sifatida o‘rgatiladi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinflardagi ona tili, o‘qish, odobnoma, tabiatshunoslik singari o‘quv predmetlarini o‘rgatishda hadislardan foydalanish katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘quvchilarning yoshini to‘g‘ri hisobga olish lozim. Chunki bola tabiatiga muvofiq keladigan narsanigina o‘zlashtiribgina qolmay, o‘zining xarakter xususiyatiga aylantiradi.

Jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga mislsiz hissa qo‘shgan allomalar asarlarida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan fazilatlar mehr-oqibat, saxiylik, ota-ona va kattalarga hurmat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar ulug‘langan va ulardan o‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirish va takomillashtirishda unumli foydalanish zarur. O‘qish, odobnoma, ona tili va adabiyot darslarini o‘tish jarayonida hadislar, o‘gitlar va hikmatlar orqali ana shu tuyg‘ularni o‘quvchilarga singdirish o‘qituvchi oldidagi eng muhim vazifa hisoblanadi. O‘quvchilarda o‘gitlar va hikmatlar, hadislarni o‘rgatish “O‘qish” darslari hamda sinfdan tashqari, mustaqil o‘qish mashg‘ulotlarida katta samara beradi.

Boshlang‘ich sinf bolalariga hadislar ertak, masal, maqol, kabi janrlarga qiyoslab o‘rganilsa, ularda axloqiy sifatlarning takomillashishi tezlashadi. Inson faoliyatida ma’naviyat birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ammo uni ilmsiz shakllantirib bo‘lmaydi. Ilm inson uchun muqaddas fazilatlardan biridir. Ilm tufayli inson ona yurtining taraqqiyotiga ko‘mak beradi. Ilm yomon xulq-atvordan, jaholat qorong‘uligidan saqlab, yaxshi xulq sohibi qiladi, insoniy fazilatlarni kamol toptiradi.

Inson faoliyatida ma'naviyat birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ammo uni ilmsiz shakllantirib bo‘lmaydi. Ilm inson uchun muqaddas fazilatlardan biridir. Ilm tufayli inson ona yurtining taraqqiyotiga ko‘mak beradi. Ilm yomon xulq-atvordan, jaholat qorong‘uligidan saqlab, yaxshi xulq sohibi qiladi, insoniy fazilatlarni kamol toptiradi. [5]

NATIJALAR

Hadis, o‘gitlar va hikmatlarda halollik, poklik, mehnatsevarlik, yurtga muhabbat, ilmga chorlash, samimiylik, insof, adolat, o‘zgalar haqiga xiyonat qilmaslik, do‘stlik, rostgo‘ylik mavzulari yetakchi o‘rin egalladi.

Hadislarni o‘rgatishda o‘quvchilarning tushunishlari oson va qulaylay bo‘lishi uchun quyidagicha guruhlash mumkin:

a)vatan haqida:

Vatanparvarlik badiiy adabiyotning azaliy, tugamas mavzularidan biri hisoblanadi. Insonning to‘la ma’noda shakllanishi, kamol topishi, eng avval, ona yurt deb atalgan muqaddas tushuncha bog‘ida shakllanadi.

Vataning tinch – sen tinch.

Vatan qadrini bilmagan o‘z qadrini bilmas.

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l.

Yurti boyning – o‘zi boy.

b)do‘stlik haqida:

Masalan, 1-sinf o‘qish kitobida Amir Temur o‘gitlari, Alisher Navoiy hikmatlari berilgan.

Yaxshini yomon kunda sina.

Sodiq va vafador do‘st o‘z do‘stini ranjitmaydi.

Birliksiz kuch bo‘lmas.

d)yaxshilik haqida:

Yomonlik qilgan kishiga yaxshilik qil.

Yaxshiga yondosh, yomondan qoch.

Yaxshilikni bilmasang, yaxshiliklarga qo‘shil.

Yaxshi kishi yomonlarga ham yaxshiligini unutmas.

Yaxshining yaxshiligi tegar har yerda, Yomonning yomonligi tegar har yerda. [3.23-26.]

c)ilm olish haqida:

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur.

Ilmli ming yashar, ilmsiz bir yashar.

Beshikdan qabrgacha ilm izla.

To‘rt so‘zdan iborat bo‘lgan bu hadis beshik bilan qabrning ko‘rinishi bir-biriga o‘xshaydi.O‘xshamasligi esa biri tebranadi, biri tebranmaydi. Beshikda hayotning boshi, qabrda hayotning oxiri. Ilm izlash tufayli ezgu fazilatlar odamda shakllanadi. Ezgu fazilatlar esa ezgu ishlarni qilishga da'vat etadi. Odam abadiy emas.

Aql va adolat haqida:

Kuch – adolatda.

Oq bo‘lsang, ont ichma.

Qo‘rqmasang, yov qochar.

Boshinga qilich kelsa-da, rost so‘zla.

2-sinf “O‘qish kitobi” darsligida **“Non – ulug‘ ne’mat”** nomli rivoyat berilgan:

NON – ULUG‘ NE’MAT

(Rivoyat)

Mirzo Ulug‘bek mulozimlari bilan ketayotganida, yo‘l yoqasida yotgan bir burda nonni ko‘rib qolibdi. Darrov otdan tushib, uni qo‘yniga solibdi. Mulozimlaridan biri:

– Sultonim, nega bizga buyurmay, o‘zingiz otdan tushdingiz? – deb so‘raganida, shunday javob beribdi:

– Nonni birinchi bo‘lib men ko‘rdim. Shunday ekan, uni yerdan olishni boshqa birovga buyurish mening nonga nisbatan hurmatsizligim bo‘lur edi. Nonning ulug‘ligi oldida mening podsholigim nima bo‘libdi?! [4.91.]

Rivoyatdan so‘ng Payg‘ambarimizning quyidagi hadislari keltirilgan

Nonga hurmat – elga hurmat.

Hammamizga ma’lumki, non turmushda zarur bo‘lgan ne’matlarning birinchisi, shuning uchun Rasululloh ko‘p o‘rinda bug‘doy ekish, uning barakasini saqlab, hurmat qilishni buyurgan. Bu hadisning mohiyatiga yuzaki qarash ko‘zlangan maqsadga olib bormaydi. Odatda ota-ona va katta yoshdagi kishilar hurmat qilinadi. Biron bir yegulikni hurmat qilish hyech bir manbada aytib o‘tilmagan. Ammo nonni hurmat qilish uqtirilgan.

Non bug‘doyning mahsuli. Taomlarning birortasini ko‘zimizga surtmaymiz. Nonni, nonning ushog‘ini ham ko‘zimizga surtamiz. Odatda odam hurmat qilgan kishisi bilan yuzma-yuz bo‘lganda biroz egiladi. Nonni, nonning ushog‘ini ko‘zimizga surtayotganda ham beixtiyor egilamiz va nonni hurmat qilamiz. Shu kabi hadislar boshlang‘ich sinf davridanoq o‘rgatilsa, bolalarda nonni e’zozlash tuyg‘usi ertaroq shakllanadi

3-sinf “O‘qish kitobi”da **“Onani rozi qilish haqida”**gi quyidagi hadis keltirilgan:

Bir kishi Rasulullohdan: “Men yaxshiligimni kimga qilsam bo‘ladi?”- deb so‘rabdi. “Onangga”, - dedilar Rasulullo. U kishi bu savolni uch marotaba qaytaribdi. Rasulullo “Onangga”, deyaveribdilar. To‘rtinchi marotaba yana so‘rabdi. Shunda “Otangga va yaqin bo‘lgan qarindoshlaringga!”- debdilar. [4.162.]

Bu hadis yosh avlodni ota-onaga, vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, insonpavarlik, odamiylik, olijanoblik, mehnatsevarlik, iffatli, mehr-oqibatli, intizomli, adolatparvar, millat g‘ururini e'zozlovchi, ulug‘ ajdodlarimiz an'analari va ilmiy meroslarini ko‘z qorachig‘iday asrash, axloqiy pok inson bo‘lib yetishish borasidagi asosiy mezon hisoblanadi.

Bu hadis shu jihatlari bilan 3-sinf bolalari uchun katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Hadis, o‘gitlar va hikmatlarda halollik, poklik, mehnatsevarlik, yurtga muhabbat, ilmga chorlash, samimiylik, insof, adolat, o‘zgalar haqiga xiyonat qilmaslik, do‘stlik, rostgo‘ylik mavzulari yetakchi o‘rin egalladi.

O‘zbek oilalarida bola tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. O‘zbek xalqi boy madaniyatga, urf-odatlarga va udumlarga ega bo‘lgan qadimiy xalqdir. O‘zbek oilalarida farzandni jismonan baquvvat, aqlan barkamol qilib tarbiyalash bilan birga ularni hayotga, turmushning og‘ir sinovlariga bardosh berishga tayyorlaydi va o‘git, nasihatlar hamda mehnatda chiniqish shakllaridan unumli foydalaniladi. Oilada ertangi kunga ishonch, mehr-oqibat, halollik, ezgulik, sabr-toqat, diyonat, qon-qarindoshlar haqida g‘amxo‘rlik qilish tuyg‘ulari shakllanadi. Chunki oiladagi yoshlarda millatimizga xos bo‘lgan olijanob xislatlarni ulug‘lash, ularga nisbatan mehr-sadoqat tamoyillarini singdirish kelgusida o‘zining ijobiy mevasini beradi. Shu asosida oilada milliy g‘oyaga yot bo‘lgan yovuz, zararli fikrlar va qarashlarga qarshi bo‘lgan immunitet shakllanadi. Bag‘rikenglik, hamjihatdlik, milliy an'analarni asrab-avaylash, Vatanni, o‘zi tug‘ilib o‘sgan joyni avaylab-asrash, uni tabiatini sevish kabi yuksak tuyg‘ular oiladagi muhitning mohiyatini ko‘rsatadi.

Jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga mislsiz hissa qo‘shgan allomalar asarlarida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan fazilatlar mehr-oqibat, saxiylik, ota-ona va kattalarga hurmat, Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar ulug‘langan va ulardan o‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirish va takomillashtirishda unumli foydalanish zarur. O‘qish, odobnoma, ona tili va adabiyot darslarini o‘tish jarayonida hadislar, o‘gitlar va hikmatlar orqali ana shu tuyg‘ularni o‘quvchilarga singdirish o‘qituvchi oldidagi eng muhim vazifa hisoblanadi. O‘quvchilarda o‘gitlar va hikmatlar, hadislarni o‘rgatish “O‘qish” darslari hamda sinfdan tashqari, mustaqil o‘qish mashg‘ulotlarida katta samara beradi.

Xullas, bolalarda bilim, ko‘nikma hosil bo‘lib, ular ezgu ishlarga qo‘l uradigan, umummanfaatiga zid bo‘ladigan qusurlardan tiyiladigan komillik sari odimlaydigan shaxs sifatida shakllana boradilar.

O‘quvchilarda bunday xususiyatlarni tarkib toptirishda o‘qituvchiga ko‘mak beruvchi asosiy vosita hadislarni puxta tahlil qilishdir. O‘tilgan hadislarni mashq qildirish va takrorlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qitilayotgan hadislarni mustaqil o‘zlashtirib olishida juda katta ahamiyatga egadir. O‘qituvchi o‘quvchilarga darsda yangi materialni tushuntirib beradi, so‘ng bir o‘quvchidan o‘zi aytib o‘tgan narsalarni takrorlab aytib berishni talab qiladi. So‘ngra boshqa o‘quvchidan ham xudi shu tartibda boshqa hadislarni aytib berishni so‘raydi. Mana shunday mashq qilish va takrorlash natijasida o‘qituvchi o‘quvchilarning nimalarni tushunmay qolganliklarini aniq ko‘radi. Bir necha marta takrorlangan hadislar o‘quvchilarning xotirasida mustahkam saqlanib qoladi.

Hadislarni o‘zlashtirishda ularni ovoz chiqarib o‘qish, yod olish va izohlashning ham o‘rni juda katta. Chunki bunday usul o‘quvchining o‘zlashtirib olgan hadislarni o‘z so‘zi bilan aytib berish, ya'ni sharhlab berish qobiliyatini oshiradi va u ko‘zda tutilgan boshqa hadislarni ham tez, aniq va mustahkam o‘zlashtirib oladi. Natijada, o‘quvchilar bir necha hadislarni o‘zlari o‘zlashtirib olganlaridan keyin, ularni boshqa tengdoshlari va ukalariga ham o‘rgatishlari mumkin.

Har qanday oilaning mustahkamligi, oilaviy tarbiyaning ta'sirchanligi va samaradorligi ko‘p jihatdan oilada qaror topgan o‘zaro munosabatlarga, ularning ma'naviy-axloqiy iqlimiga bog‘liq. Zero, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning Hadisi shariflarida aytilganidek: ***Ota-onalarning farzandlariga qoldiradigan eng katta merosi ularga beradigan ta'lim-tarbiyasi, go‘zal odobi va axloqidir.***

Ulug‘ mutafakkirlarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Nasr al-Farobiy, Abu Mahmud Xo‘jandiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yugnakiy, Xoja Ismoil Buxoriy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo, Ali Qushchi, qolaversa, har birining nomi tarix zarvaraqlariga abadiy muhrlangan samarqandiylar, buxoriylar, nasafiylar, xorazmiylar, tirmiziylar, xo‘jandiylar, shoshiylar, farg‘oniylar, turkistoniylar, marg‘inoniylar kabi ajdodlarimiz hadislaridan namunalar keltirib yoshlarga tushuntirish bugungi kunning eng muhim masalalaridan hisoblanadi. Ushbu allomalarni butun dunyo tan olganligi haqidagi misollar keltirilsa, o‘quvchilarda ajdodlarga bo‘lgan ehtirom tuyg‘usi yanada kuchayadi.

Sharq mutafakkirlari ham farzandning oiladagi tarbiyasi xususida o‘z asarlarida juda ko‘p to‘xtalib o‘tganlar. Jumladan, buyuk alloma va mutafakkir Abu Ali ibn Sino o‘zining “Donishnoma” asarida farzand tarbiyasi uchun avvalo ota-ona mas'ulligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga alloma o‘z asarida ota-onaning ilmli, fozil va dunyoqarashlari keng bo‘lishliklarini alohida uqtirib, farzand tarbiyasidan mas'uliyatliroq ish yo‘qligini bayon qiladi.

Hadislarda keltirilgan har bir so‘z, har bir fikr hadislarga ehtirom bilan qarash har bir fuqaroning vatanparvarlik burchi ekanligi Undagi har bir so‘zda vatanparvarlik, tashabbuskorlik, ijodkorlik g‘oyalari borligi boshlang‘ich sinf davridanoq ularning ongu shuuriga singdirib borish zarur.

O‘qish, odobnoma darslarida hadislardan namunalar keltirib ma'naviy barkamol inson — komil insonni tarbiyalasak, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo‘lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga bo‘lgan muhabbatlari ortadi, tushunib yetadilar. [5]

XULOSA

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bir xilda yondashib bo‘lmaydi. Chunki, birinchi sinf o‘quvchilari bilan 4-sinf o‘quvchilarining tushunishlari turlicha. Shuningdek o‘qishga, o‘yinga, atrof-muhitga, kishilarga bo‘lgan munosabatlari ham turlicha, bir-birlaridan farq qiladi. Shuning uchun, o‘qish, ona tili, odobnoma darslari va turli tarbiyaviy tadbirlar orqali o‘quvchilarga hadislarni singdirishda ana shu farqlar hisobga olinmog‘i lozim. Shunda bolalarning hadisi sharifga bo‘lgan qiziqishlari ortib boradi. Natijada, o‘quvchilar badiiy adabiyotning o‘z yoshlariga mos keladigan turli janrlari: ertak, she'r, maqol, topishmoq kabi turlarini qanchalik sevib o‘qishsa, hadislarni ham xuddi shunday sevib o‘qiydilar. Shuningdek, o‘quvchilarning oiladagilarga, o‘zidan katta-kichiklarga, tengdoshlariga, atrof-muhitga, o‘zlarini o‘rab turgan noz-ne'matlarga bo‘lgan munosabatlari yaxshilanib, ijobiy fazilatlari kamol topa boshlaydi. [2]

Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda hadislar bilan tanishtirish, nafosat va go‘zallikka intilishi, uni his etishi va bu jarayondan zavqlanishi, milliy badiiy qadriyatlarni qadrlashi va o‘zidan keyingi avlodga uni yetkazishi uchun shaxsiy mas'ul ekanligini his qildirmog‘imiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. president.uz

2.Umarova M., Hamraqulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. T.: O‘qituvchi. 2017.

3.G‘offorova T., E.Shodmonov, G.Eshturdiyeva. “O‘qish kitobi”.Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. – T. “Sharq” nashriyot-matbaa aksidorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2019.

4.G‘afforova T., Nurullayeva Sh., Mirzahakimova Z. O`qish kitobi. Umumi o`rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. – T. “Sharq” nashriyot-matbaa aksidorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2016.

5.www. ziyouz.com kutubxonasi

6. markaz.mtg@edu.uz